



MORIS RAVEL ASARLARI VA FORTEPIANO IJODI

To'raxonova Dilshoda Baxromjon qizi

2-bosqich magistratura talabasi

Ilmiy raxbar: L.B.Kabduraxmanova

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17592663>

ARTICLE INFO

Received: 1st November 2025

Accepted: 2nd November 2025

Published: 12th November 2025

KEYWORDS

fransuz musiqa, konservatoriya, ijod, turkum, orkestr, fortepiano asarlari.

ABSTRACT

Maqolada Ravelning har xil cholg'u asboblari uchun yozgan asarlari va fortepiano uchun yaratilgan asarlari haqida bayon etiladi. Ushbu maqolada fransuz impressionizm davrining yirik kompozitorlaridan biri – Moris Ravelning fortepiano ijodiga bag'ishlangan. Maqolada bastakorning fortepiano asarlariga xos bo'lgan uslubiy xususiyatlar, ohangdorlik, tembr va faktura rang-barangligi, shuningdek, impressionistik musiqaga xos badiiy ifoda vositalari tahlil qilinadi. Maqolada bastakorning fortepiano ijodidagi impressionistik uslub, obrazlar tizimi hamda ohangdorlik xususiyatlari tahlil qilinadi.

XX asr boshlarida Yevropa musiqa madaniyatida yangi badiiy oqim – impressionizm shakllandi. Bu yo'nalish, avvalo, tasviriy san'atda paydo bo'lib, keyinchalik musiqaga ham chuqur ta'sir ko'rsatdi. Fransuz bastakori Moris Ravel impressionistik musiqaning eng yorqin vakillaridan biri bo'lib, uning fortepiano asarlari o'ziga xos nafislik, tembr boyligi va rangtasvirli ifodasi bilan ajralib turadi. Moris Ravel avtomobil muhandisi oilasida tug'ilgan. Otasi musiqa ishqibozi edi va o'g'liga musiqaga muhabbatni uyg'ontirgan. 1882-yildan Moris pianino chalishni o'rganishni boshlaydi keyin esa garmoniyani o'rganadi. 1889-yilda Parij konservatoriyasiga o'qishga kirib, fortepiano bo'yicha tahsil oladi. O'qishning oxirida Gabriel Forening sinfiga kirib uing tashabbusi bilan "Habanera", "Qadimgi menuet" turkumlarini yaratdi va oqishni tamomlagach, 1900-1914-yillarda juda ko'p asarlar yaratdi. Xuddi shu yillarda ko'plab musobaqalarga qatnashib, mukofotlar qo'lga kiritadi.

Ravel hammering diqqat markazida edi. Uning shuhrati kundan-kunga ortib borar, asarlari esa juda talab asosida nashr etilardi. Asarlari konsertlarda ijro etilib, har xil bahsmunozaralarga sabab bo'lardi. Ravel musiqiy impressionizmning ikkinchi yetakchisiga aylandi. Va u doim hurmati baland bo'lgan o'zi yoqtirgan Klod Debyussi darajasiga yetdi. Germaniya bilan urushning birinchi oyida faol Armitage safiga safarbar qilindi. Lekin sog'ligi yaxshi bo'lsa ham uni tibbiy komissiya qurolli kuchlarnibg biror bo'limiga qabul qilmaydi chunki, uning bo'yi juda past va tana vazni askar uchun yetarli emas edi. Hech qanday Armiya standartlariga javob bermas edi. U 3 oygacha qabul qilinishi uchun har xil yo'llarni qilib ko'rdi nihoyat, 1914-yi oktyabr oyida avtomobil bo'limiga ko'ngilli sifatida qabul qilindi. 3 yildan ko'proq vaqt davomida yuk mashinasi haydovchisi bo'lib xizmat qildi. 1918-yilda sog'ligi yomonlashib xizmatdan bo'shatilgan. Urushdan keyin ham Ravelning vatanparvarlik tuyg'ulari uning ustozi va raqibi Erik Sati tomonidan bir necha bor istehzoli masxara mavzusiga aylandi.

Urushdan keyin Ravel musiqasi hissiy jihatdan o'zgardi. Opera yozishdan cholg'u asboblarga asar yozishni boshlaydi va "Grobnisa Kuperena" nomli suitani yozadi. Bu Ravelning qanchali kuchli, bilimli, shon-shuhratli ekanini ko'rsatdi. Mashhurlik va shon-shuhrat Ravelga

og'irlik qildi. U Parijdan Montfort-Lamori shahriga ko'chib o'tdi. Ravel juda ko'p gastrollarda bo'ldi. Angliya, Gollandiya va Italiyada o'z asarlarini ijro etgan pianinochi va dirigor bo'ldi. Ravelning eng mashhur asarlaridan biri bo'lgan "Bolero"da kompozitor klassik an'analarni ispan musiqasi ritmlari bilan uyg'unlashtirgan. Ushbu ishning konsepsiyasi taniqli balerina Ida Rubinshteynga tegishli. Harakatlarni tartibga solish va ularning asosiy mavzuni ishlab chiqishdagi qat'iy ketma-ketligi ularga ispan musiqasining raqsga o'xshash tabiatini yetkazish imkonini berdi.

Taniqli rus balerinas Anna Pavlova o'z repertuariga "Bolero" ni kiritdi. 1925-yilda Ravel o'zining "Bola va sehr" asarini tugatdi. Va uni opera-balet asari deb atadi. Bu safar Ravel Kanada va Amerika Qo'shma Shtatlarida gastrolga bo'ldi. U yerda ham pianinochi va dirigor deb e'tirof etilishi uchun o'z asarlarini ijro etdi. Bu gastrol safari 4 oy davom etdi. Amerika gastrollari davomida uning jazz va blyuz musiqasiga bo'lgan ishtiyoqi Ravel musiqasida o'z aksini topdi. Ayniqsa uning G-majordagi fortepiano kontsertining birinchi qismi va skripka va pianino uchun ikkinchi sonatasining ikkinchi qismi. 1929-yilda kompozitorga Oksford universitetining faxriy musiqa doktori unvoni berilgan.

1933 yildan boshlab Ravel jiddiy nevrologik kasallikdan aziyat chekdi, bu balki avtohalokatda olgan travmatik miya jarohati natijasidir. Bastakorning og'ir kasal bo'lgan paytidagi yozgan so'nggi asari "Don Kixot" nomli birinchi ovozli film uchun "Uch qo'shiq" bo'ldi. Ular rossiyalik qo'shiqchi Fyodor Shalyapin uchun yozilgan. U 1937-yil 28-dekabrda Parijda muvaffaqiyatsiz miya operatsiyasidan so'ng vafot etdi. U Parijning Levallois-Perperet nomli joydagi qabristonga dafn etilgan.

Ravel fortepiano uchun 1895-yilda "Eski menuet" ni yozadi, orkestr variantini esa 1929-yilda yozadi. 1899-yilda "Pavana na smert infanti", orkestr uchun yozadi. 1910-yilda 1901-yilda "Suv ijrosi", 1905-yilda sonatina, 1908-yilda "Night Visions", 1908-1910-yillarda "Mening g'ozim" nomli pyesalar to'plami, orkestr uchun 1911-yilda yozadi. Ushbu yilda "Olijanob va sentimental vals" orkestr variantini esa 1912-yilda yozadi. 1914-yilda lya minor fortepiano triosi, 1917-yilda "Grobnisa Kuperena" syuitasi, bundan 4 ta pyesa 1919-yilda orkestrlangan. 1926-yilda qo'shiq turkumimi, 1927-yilda skripka va fortepiano uchun 2-sonatasi, 1931-yil Sol major fortepiano va orkestr uchun konserti, 1930-yilda Paulo Vitgenshteynga bag'ishlab fortepiano va orkestr uchun konsert yozadi. Bu konsert chap qo'l uchun yozilgan. Bundan tashqari "Shexerazada" nomli uvertyura yozadi. Bu asar simfonik orkestr uchun 1898-yilda yoziladi.

1903-yilda 1-torli kvartet, ushbu yilda "Shexerazada" soprano yoki tenor va orkestr uchun qo'shiq turkumini yozadi. 1907-yilda simfonik orkestr uchun Ispan rapsodiyasi, "Ispan soati" operasi, 1912-yilda "Dafnis va Xloya" baleti, 1920-yilda orkestr uchun "Vals" nomli xoreografik poema yozadi. 1925-yilda "Bola va sehr" operasi, 1926-yilda "Madagaskar qo'shiqlari" soprano, nay violonchel va pianino uchun qo'shiqlar turkumi, 1938-yilda simfonik orkestr uchun "Bolero", 1933-yilda "Don Kixotning Dulsineyaga uchta qo'shig'i" baritone va simfonik orkestr uchun qo'shiqlar turkumini yozadi.

Moris Ravelning judayam ijodkor inson bo'lganligini ko'rish mumkin. Vatanini juda ham sevgani, qanday yo'l bilan bo'lmasin urushda o'z hissasini qo'shishga harakat qilganligini yaqqol ko'rish mumkin. Harakat qilib o'zi bir paytlar muxlisi bo'lgan judayam hurmat qilgan kompozitorlar darajasiga chiqib olganligini, kasallik paytlarida ham ijoddan to'xtamaganligini ko'rish mumkin. Ayniqsa urushdagi qatnashuvlaridan so'ng yanada hissiyotli bo'lganligi, ya'ni Vatan qadrini yanada chuqur tushunganini anglash mumkin. Albatta unga hasad bilan qaraganlar ham bo'ldi lekin Ravel o'z hayotini yashab ijodda bo'ldi.

Moris Ravel fortepiano ijodi orqali impressionistik musiqaning eng nozik tomonlarini yoritib bera oldi. Uning asarlarida tovush ranglarining uyg'unligi, dinamik kontrastlar va fakturaning nozik ishlanishi bastakor mahoratini namoyon etadi. Ravel fortepiano musiqasi nafaqat texnik balki badiiy jihatdan ham chuqur mazmunga ega bo'lib, u fransuz musiqiy madaniyatining eng yuksak namunalaridan biri sifatida baholanishi mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Kreyn, Yu. G. Moris Ravel / Yu. G. Kreyn // Sovetskaya muzyka. – 1957. – № 12. – S. 54–64.
2. Martynov, I. I. Moris Ravel / I. I. Martynov. – M. : Muzyka, 1979. – 335s.
3. Smirnov, V. V. Moris Ravel i ego tvorchestvo / V. V. Smirnov. – L. : Muzyka, 1981. – 222 s.



INNOVATIVE
ACADEMY